

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYIY KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHALTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

THE PARTICIPATION OF WOMEN IN ENSURING THE STABILITY OF THE SOCIO-SPIRITUAL ENVIRONMENT

Toshboboieva Munavar,

Lecturer at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. The article analyzes traditional perceptions of women in society, gender equality, their participation in political processes, economic independence, and issues related to increasing women's activity in society while preserving traditional spiritual values. Additionally, examples illustrating women's participation in ensuring the stability of the socio-spiritual environment are provided.

Keywords: state, society, women, traditional views, gender equality, political processes, economic independence, spiritual values, activity, socio-spiritual environment, stability.

IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI

Toshboboieva Munavar

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada jamiyatda ayollar haqidagi an'anaviy qarashlar va gender tengligi, uning siyosiy jarayonlarda ishtiroki, iqtisodiy mustaqilligi, an'anaviy ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhiti barqarorligida xotin-qizlarning ishtiroki masalalari bo'yicha misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, xotin-qizlar, an'anaviy qarashlar, gender tengligi, siyosiy jarayonlar, iqtisodiy mustaqillik, ma'naviy qadriyatlar, faollik, ijtimoiy-ma'naviy muhit, barqarorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N29>

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, jamiyatda xotin-qizlarning o'rni va roli haqidagi qarashlar tobora yangilanib, ularning ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligidagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi nafaqat ijtimoiy taraqqiyot, balki ma'naviy barqarorlikning ham muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, xotin-qizlarning ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligidagi ishtiroki bilan bog'liq falsafiy muammolar tahlili falsafa fanlarining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Hozirgi kunda xotin-qizlar jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirok etmoqda. Ular siyosat, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohalarida muhim o'rin tutmoqda. Ayollarni, jamiyatdagi o'rni va ahamiyatiga ko'ra, alohida ijtimoiy guruh sifatida tavsiflash ham mumkin. Bunda ayollar bilan bog'liq ijtimoiy masalalar, ularning bilim olishi, kasb egallashi, bandligi, mavqeyi, erkaklar bilan huquqiy tengligi, bolalar tarbiyasi, oilani mustahkamlashdagi o'rni kabi masalalarga alohida ahamiyat qaratiladi[1.20]. Biroq, ayollarning ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligidagi ishtiroki hali ham to'liq rivojlanmagan sohalardan biridir. Buning sabablaridan biri gender tengligi bilan bog'liq stereotiplar va an'anaviy qarashlardir.

“Zamonaviy o‘zbek oilasida gender munosabatlari o‘zgarish holatida gap ketganda, sobiq sovet shartnoma modeli bilan bir qatorda “ishlaydigan ona”, yangi turdagi oila shakllanadi — ikki martabali oila bo‘lib, unda ikkala turmush o‘rtog‘i ham kasbiy o‘sish va jamoat sohasida o‘zini ko‘rsatishni da’vo qiladilar. Bunday oilada erkaklarning hukmronligi darajasi pasayadi, ayollarning iqtisodiy qaramligi kamroq bo‘ladi, burch va majburiyatlarni taqsimlash masalalari kelishuvlar asosida hal qilinadi[2.13].

Masalaning falsafiy muammolari va ularining bir qator yechimlari mavjud. An’anaviy qarashlar va gender tengligi – jamiyatda xotin-qizlar haqidagi an’anaviy tasavvurlar ularning ijtimoiy hayotda to‘liq ishtirok etishini cheklashi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun ta’lim va ma’rifatga asoslangan yondashuv talab etiladi. Xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki – ma’lumotlarga ko‘ra, ayollarning siyosatdagi ishtiroki kam. Ularning qaror qabul qilish jarayonlariga faol jalb etilishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi – Ijtimoiy barqarorlik uchun ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lishi muhimdir. Buning uchun ularning tadbirkorlik va mehnat bozoridagi ishtirokiga ko‘proq imkoniyatlar yaratish lozim. Ma’naviy qadriyatlar va modernizatsiya – hozirgi globallashuv davrida an’anaviy ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish muhim.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy mahalliy va xorijiy adabiyotlarda jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhiti barqarorligini ta’minlash omillari, xususan xotin-qizlarning o‘rni muammosining o‘rganilish darajasini sarhisob qilsak, ushbu maqola mavzusi falsafa fanlarida anchagina keng doirada tahlil qilingan. Ularni hal qilish uchun tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan, jumladan: muammoli — xronologik – jamiyat hayotida xotin-qizlarning o‘rnini o‘rganish, jamiyat hayotining turli sohalarida bu qatlamning ishtiroki shakllari va usullarining paydo bo‘lishining kelib chiqishini aniqlash qaratiladi. Qiyosiy-tarixiy uslub asosida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotida faolligining ortib borishi, bu boradagi to‘siqlar va qiyinchiliklarni bartaraf qilishning takomillashib borishini ta’kidlash mumkin. Konkret-sotsiologik tadqiqotlar usuli esa jamiyatda xotin-qizlarning turli soha va yo‘nalishlarda faolligini o‘rganish, ular bilan aloqador tendensiyalar va o‘zgarishlarni aniqlashni ko‘zda tusa, mantiqiy usul — mavjud hodisa va jarayonlar o‘rtasida aniq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Mavzu maqolada ushbu usullardan birgalikda foydalanish mavjud muammoni aniqroq va chuqurroq tekshirishga imkon berdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, uning barqarorligini ta’minlashdagi ishtirokining falsafiy tahlilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borishgan. Bu tadqiqotlarda xotin-qizlar faolligini ta’minlashdagi to‘siqlar, muammolarning nazariy, tashkiliy va amaliy masalalarini umumlashtirish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b., Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –508 b., Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b., Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 456 b., Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – 408 b., Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,

2023. – 520 b., Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – 392 b., Bir bo‘lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – vatanimiz. 8-jild. — Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2024. — 344 b., “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” kabi asarlarida yangilanayotgan o‘zbek jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni va roli haqidagi mulohazalar ilgari surilgan.

Muhokama va tahlillar. O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va rolini shakllantirish jarayoni uzoq tarixiy rivojlanishga ega bo‘lib, u turli madaniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta‘sirida yangilanib bormoqda. Bu jarayonni falsafiy tahlil qilish uchun ularni bir necha asosiy jihatlarida ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. **1. Tarixiy kontekst va an‘anaviy qarashlar.** O‘zbekistonning an‘anaviy jamiyatida xotin-qizlar oila va tarbiya jarayonining asosiy ustuni sifatida qaralgan. Turon zaminida qadimdan urf-odatlar va diniy qarashlar xotin-qizlarning asosiy vazifasini oilaga bog‘lagan. Biroq, islom dinida ham, qadimgi turkiy madaniyatlarda ham ayollarga nisbatan hurmat va teng huquqiylikning ba‘zi tamoyillari mavjud bo‘lgan. Shu bois, xotin-qizlarga nisbatan jamiyatda shakllangan qarashlar doimo o‘zgarib borgan. **2. Sobiq sovet davri va jamiyatdagi transformatsiya.** Sobiq ittifoq davrida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, ularning ta‘lim olishi, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi va davlat boshqaruviga kirib borishiga katta e‘tibor qaratildi. Bu jarayon feministik harakatlar ta‘sirida emas, balki kommunistik partiyaning tenglik g‘oyalari asosida amalga oshirilgan. **3. Mustaqillik davri va modernizatsiya jarayoni.** 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy an‘analar va islomiy qadriyatlar qayta tiklanishi bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatda ham yangi qarashlar shakllandi. Bunda an‘anaviy va zamonaviy qarashlarni uyg‘unlashtirishga urinish kuzatildi. Xotin-qizlar muammosiga falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayon dialektik rivojlanish tamoyiliga asoslanadi, ya‘ni tezis – sovet davridagi xotin-qizlarning faol ijtimoiy roli. Antitezis – an‘anaviy qarashlarning qayta tiklanishi va ayollarning asosan oila doirasida qolishi. Sintez – an‘anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan yangi qarashlar. **4. Globallashtirish va axborot texnologiyalarining ta‘siri.** Bugungi kunda axborot kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro tashkilotlar ta‘siri xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini qayta shakllantirmoqda. Xususan, gender tengligi masalasi global miqyosda muhokama qilinmoqda va bu O‘zbekiston jamiyatiga ham ta‘sir o‘tkazmoqda. **5. Hozirgi davrdagi islohotlar va taraqqiyot.** O‘zbekistonda oxirgi yillarda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolga oid keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar qabul qilinmoqda. Respublikaning gender tengligi strategiyasi joriy etilmoqda, ularning tadbirkorlik, ilm-fan va siyosatdagi ishtiroki kengaymoqda. Bu islohotlar ayollarning jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlashga va ularga nisbatan ijtimoiy qarashlarning izchil yangilanib borishiga zamin yaratmoqda. Mutaxassislar fikricha, “Gender tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog‘liq. Insonlar tug‘ilishdanoq ijtimoiylashadi, o‘zi yashayotgan jamiyatning stereotip, axloq, fe‘l-atvor, xulq me‘yorlari, ijtimoiy determinantlarga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o‘zini tutishni o‘rganadi. Shu bilan birga, insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ijtimoiylashuv jamiyatning haqiqiy a‘zosi bo‘lish uchun muhim jarayondir. Biroq ijtimoiylashuv doirasida orttirilgan fe‘l atvor modellari shaxs uchun har doim ham foydali bo‘lmasligi mumkin”[3.13].

O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki masalasini falsafiy tahlil qilsak, bu o'rinda O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki so'nggi yillarda ancha kengayishini ta'kidlash joiz. Bu jarayonni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun gender tengligi, dialektik rivojlanish, ijtimoiy adolat va modernizatsiya tushunchalari doirasida qarash maqsadga muvofiqdir.

Masalani tarixiy va an'anaviy kontekstda ko'rib chiqsak, an'anaviy jamiyatlarda siyosat asosan erkaklar faoliyat yuritadigan sohalardan biri sifatida qaralgan. O'zbekiston ham bundan mustasno emas edi. Ammo turkiy davlatlar tarixida ayollar siyosiy hayotda faol bo'lganini kuzatish mumkin. Masalan, To'maris yoki Bibixonim kabi shaxslar o'z davrida davlat boshqaruvida muhim rol o'ynagan. Sobiq ittifoq davrida esa gender tengligi shiori ostida xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki rasman oshgan, lekin aslida ko'p hollarda nomiga bo'lgan. Ayniqsa, partiya tizimida ayollar asosan formal lavozimlar bilan cheklanib qolgan.

Mustaqillikdan so'nggi transformatsiya va siyosiy ishtirok jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy an'analar va islomiy qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni boshlandi. Shu bilan birga, demokratiya va gender tengligiga oid yangi tushunchalar ham shakllanib bordi. Biroq, dastlabki yillarda xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki juda pas bo'lib, ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi o'rni cheklangan edi. Buning asosiy sabablari sifatida jamiyatda xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokiga nisbatan an'anaviy shubha va to'siqlar hamda ularning siyosatda faol bo'lishi uchun yetarli muhit va imkoniyatlar yaratishda kechikish. Ayniqsa, siyosiy jarayonlardagi patriarxal hukmronlik asosiy muammo bo'lgan.

Xotin-qizlar borasidagi davlat siyosati va huquqiy islohotlar tahlilida aytish mumkinki, so'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun (2019), "Gender tenglik kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarni (2019) esga olish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlar uchun siyosiy partiyalar va parlamentda kamida 30% kvota joriy etilgani ham alohida ahamiyatga molik bo'ldi. Bu qonunlar fuqarolik jamiyatida xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki uchun huquqiy asosni mustahkamladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ijro organlarida, vazirlik va idoralarda gender tenglikni ta'minlash, muhtarama opa-singillarimizga mas'ul lavozimlarni ishonib topshirish bo'yicha ko'p ish qilishimiz kerak. Nega deganda, ayollarimiz hayotiy muammolarni boshqalardan ko'ra chuqurroq bilishi, fidoyiligi, kuchli mas'uliyat tuyg'usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o'rnak bo'ladi"[4.83]. Aristotel va Jon Lokkning "adolatli jamiyat" nazariyasi nuqtai nazaridan qaralsa, bu jarayon xotin-qizlarning siyosiy tenglikka erishish yo'lidagi mantiqiy qadamdir. Falsafiy jihatdan qaralganda, bu jarayon Jon Rolzning "adolat nazariyasi" va Fukoning "hokimiyat va bilim munosabati" g'oyalari asosida tushuntirilishi mumkin.

Masalaning yana bir jihati, O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashdir. Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi – jamiyatda teng huquqlilik va adolatni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon adolat (Jon Rolz), dialektik rivojlanish (Gegel) va ekzistensial erkinlik (Sartr) g'oyalari bilan tushuntirilishi mumkin. Masalaga tarixiy va an'anaviy kontekstda yondashsak, an'anaviy o'zbek jamiyatida xotin-qizlar asosan oilaviy-uy xo'jalik ishlariga mas'ul bo'lib, iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etmagan.

Bu muammo sobiq sovet davrida ayollar ishlab chiqarishda faol qatnashgan bo'lsa ham, ularning iqtisodiy mustaqilligi aksariyat hollarda rasmiy maqom bilan cheklangan edi. Mustaqillikdan so'ng, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xotin-qizlarning iqtisodiy rolga nisbatan qarashlar ham o'zgardi.

Bugungi o'zbek jamiyatida xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini raqamlar va misollar bilan ko'rib chiqish mumkin. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda mehnat bozorida ishtirok etayotgan xotin-qizlar ulushi 46% ni tashkil etadi. Ayrim sohalarda, xususan, ta'lim va tibbiyotda xotin-qizlar ulushi 70-80% ga yetgan. Bank sektori, IT, tadbirkorlik va sanoat sohalarida ayollarning ishtiroki so'nggi 5 yilda 35% ga oshgan. Bu raqamlar xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqillikka erishish yo'lida olg'a siljishni ko'rsatadi.

So'nggi yillarda davlat tomonidan ayollar tadbirkorligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2022-yilda ayol tadbirkorlar soni 170 000 nafarga yetdi, bu 2017-yilga nisbatan 40% ko'p. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali 2022-yilda 2,5 trln so'mlik kreditlar ajratildi. "Ayollar daftari" dasturi doirasida 2021-2023-yillarda 1,5 mln nafar ayolga ish o'rni yaratildi. Bular Gegelning "modernizatsiya dialektikasi" g'oyasi asosida tushuntiriladi. Ya'ni, an'anaviy jamiyatda ayollarning iqtisodiy roli cheklangan bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda davlat siyosati va bozor iqtisodiyoti talablari natijasida ularning ishtiroki ortmoqda. "Shu bilan birga, ayollarning bandlik ulushi ta'lim, sog'liqni saqlash, chakana savdo, umumiy ovqatlanish kabi sohalarda ortib bora boshladi. Qariyb barcha rivojlangan mamlakatlarda barqaror gender taqsimoti mavjud bo'lib, unga ko'ra, erkaklar mehnat bozorida, ayollar esa uy mehnati bilan band? Dunyoning barcha regionlarida (ozgina farqlar bilan) uy ishlarining og'irligi 75% ayollarning zimmasiga to'g'ri keladi"[5.13].

Bu o'rinda asosiy masala xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining samarasini yanada ko'tarishdir. Sohadagi huquqiy va institutsional islohotlar mazmuni, avvalambor, O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida qator qonunlar qabul qilinganni ko'rsatdi. Jon Rolzning "Adolat nazariyasi" nuqtai nazaridan qaralganda, bu islohotlar iqtisodiy resurslarni adolatli taqsimlashga qaratilgan bo'lib, xotin-qizlarga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Bizning fikrimizcha, xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda haligacha qator muammolar mavjud. Jumladan, an'anaviy mentalitetga ko'ra, ayrim joylarda ayollarning iqtisodiy faolligiga hali ham salbiy qarashlar mavjud. Shuningdek, mahalliy bozorda raqobatchilikda ayol tadbirkorlar katta raqobat muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash talab qilinadi. Yana bir muhim jihat oilaviy majburiyatlar bo'lib, ular ish va oilaviy vazifalarni bir vaqtda olib borishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ammo "Ayollarning ijtimoiy mehnatda bandlik darajasi ularning ikkita muhim vazifasi – onalik maqomi va muayyan kasbga ega xodima sifatidagi kuch va qobiliyatini baholash bilan belgilanadi. Hozirgi kunda bu ikki vazifani uyg'unlashtirish «Ayollar masalasi»ning mohiyatini tashkil etadi"[6.20]. Fukoning "Hokimiyat va iqtisodiy munosabatlar" g'oyasiga ko'ra, bu muammolar ijtimoiy tartib va iqtisodiy mexanizmlarning uzluksiz o'zgarishi bilan bog'liq. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon adolat, modernizatsiya va inson erkinligining dialektik uyg'unlashuvi natijasi bo'lib, kelajakda iqtisodiy tenglikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv davrida an'anaviy ma'naviy qadriyatlarni saqlagan holda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish har bir jamiyat oldidagi muhim vazifaga aylandi. Globallashuv — bu iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarning dunyo miqyosida

birlashishi jarayonidir. Bu jarayon an'anaviy qadriyatlarga ta'sir qilishi mumkin, ayniqsa, gender rollari va xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini borasida hal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayonni Hegelning dialektik rivojlanish nazariyasi, Jon Rolzning adolat g'oyasi, Fukoning hokimiyat va ijtimoiy munosabatlar tushunchasi asosida tahlil qilish mumkin.

Globallashuv va an'anaviy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyat va uyg'unlik masalasi bir qator muhim jihatlarni oydinlashtiradi. Birinchidan, an'anaviy jamiyat nuqtai nazaridan xotin-qizlarning asosiy vazifasi oila va bola tarbiyasi deb qaralgan. Bu qarash hanuzgacha ko'plab jamiyatlarda mavjud. Ikkinchidan, globallashuv ta'siridagi modernizatsiyaga ko'ra hozirgi kunda ayollarning jamiyatda faol ishtirok etishi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi va ta'lim olishiga bo'lgan talab ortmoqda. Masalaga falsafiy nuqtai nazardan yondashilsa, Hegelning dialektik rivojlanish nazariyasi bo'yicha, an'anaviylik (tezis) va modernizatsiya (antitezis) qarama-qarshiligidan yangi uyg'unlik (sintez) paydo bo'ladi. Bugungi kunda an'anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish shunday sintezdir.

Davlat va jamiyat oldidagi yana bir muhim vazifa an'anaviy qadriyatlarni saqlagan holda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini oshirish yo'llarini joriy qilishdir. Ayollarning bilimli bo'lishi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki oila va jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim. O'zbekistonda xotin-qizlar uchun oliy ta'limga kvotalar va grantlar ajratilishi, "Texnik va kasbiy ta'limda xotin-qizlar ulushini oshirish dasturi" orqali IT, injeneriya va tibbiyot sohalarida ayollarning ishtiroki kengayishi, "Zamonaviy ayollar maktabi" loyihalari orqali ayollarning iqtisodiy va madaniy salohiyati oshirilayotgan fikr darajasida ham ayollarning erkaklar bilan tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jon Dyuning pragmatik ta'lim nazariyasi bo'yicha, inson jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun amaliy bilimga ega bo'lishi kerak. Ayollar uchun bu juda muhim.

Shuningdek, yana bir qator muammolarni qisqa sanab o'tish mumkin. An'anaviy jamiyatlarda ayollarning moddiy jihatdan erkaklarga bog'liq bo'lishi keng tarqalgan. Bu ularning jamiyatdagi roli va qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini cheklaydi. Aristotelning "o'rta yo'l nazariyasi" bo'yicha, ayollarning jamiyatdagi ishtiroki ham an'anaviylik, ham zamonaviylikni uyg'unlashtirishi lozim. Globallashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar xotin-qizlarning an'anaviy rolini o'zgartirmoqda. Fukoning hokimiyat va axborot munosabatlari nazariyasi bo'yicha, axborot sohasini qo'lga kiritgan guruhlar jamiyatni shakllantirishda ustunlikka ega bo'ladi. Xotin-qizlar axborot sohasida faol bo'lsa, ularning jamiyatdagi mavqeyi ham oshadi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligidagi ishtiroki falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, bir qator muammolar va yechimlar mavjud ekanligi ko'rinadi. Gender tengligini ta'minlash, ta'lim va madaniy ma'rifatni oshirish, xotin-qizlarning iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokiga ko'proq e'tibor qaratish orqali bu sohada ijobiy natijalarga erishish mumkin. Xotin-qizlarning faolligi nafaqat ularning shaxsiy hayoti, balki butun jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, O'zbekistonda xotin-qizlarning o'rnini va roli haqidagi qarashlar Hegelcha dialektika asosida rivojlanmoqda. Bu esa yangilanishning tabiiy jarayon ekanligini ko'rsatib, an'anaviylik va modernizatsiya uyg'unligi ayollarning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi O'zbekistonda xotin-qizlar nafaqat oilada, balki siyosat, iqtisodiyot, fan va san'at sohalarida ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy ishtiroki rivojlanish yo'lida tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarixiy dialektik rivojlanish asosida ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki an'anaviylik va modernizatsiya uyg'unligida shakllanmoqda. Qonunchilik va siyosiy islohotlar orqali xotin-qizlarning huquqlari kengaymoqda va buni konkret misollar bilan ularning siyosiy jarayonlardagi ishtirokining o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, axborot jamiyati va ijtimoiy tarmoqlar xotin-qizlarning siyosiy faolligini kuchaytirmoqda.

Globallashuv va an'anaviylik uyg'unligi ayollarning faolligi oshirishga xizmat qilish bilan birga, jamiyatda an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayotni ham uyg'unlashtirmoqda. Bunday asosiy omillar sifatida ta'lim va intellektual rivojlanish, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik ayollarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, oilaviy tarbiya va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi hamda ommaviy axborot vositalari va internet xotin-qizlarning faolligini oshirmoqda. Bugungi globallashuv davri xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini o'ziga xos boshqa usullar asosida ham oshirishi mumkin, ammo bu jarayon an'anaviylik va modernizatsiya uyg'unligida amalga oshirilishini talab qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Маънавият асосий тушунчалар луғати –Тошкент: FFулом номидаги НМИУ, 2009. – Б.20
2. Амирхўжаев Ш. Ўзбек оилаларида ижтимоий-маданий жараёнлар трансформацияси (XX аср охири - XXI асрнинг боши) 09.00.04 – Ижтимоий фалсафа Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Андижон, 2021. -Б. 13
3. Холиқова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар. – Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 13.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. –Б. 83
5. Холиқова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар. – Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 13
6. Маънавият асосий тушунчалар луғати –Тошкент: FFулом номидаги НМИУ, 2009. – Б.20

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).